“6x6x6”

“6x6x6” 36 nafar o‘quvchi aytarli uzoq bo‘lmagan vaqt ichida qandaydir masalani muhokama qilish yoki o‘rganish va guruh a’zolari ko‘pchiligining fikrini bilib olish imkoniyatiga ega bo‘ladigan uslubdir. Har 6 guruhda (har bir guruh 6 kishidan iborat bo‘ladi) 6 nafardan o‘quvchi o‘qituvchining topshirig‘i bo‘yicha muammoni muhokama qiladi yoki muammoning bir qismini o‘rganadi. Shundan keyin o‘qituvchi har bir guruhga avvalgi bahslashgan guruhda ishtirok etgan o‘quvchi bo‘ladigan bir tarzda yana 6 ta yangi guruh tuzadi. Yangi guruhlarda ishtirokchilar hammani o‘z guruhlari ishi yakunlari bilan tanishtiradi. 6x6x6-guruhning barcha a’zolarini faollashtiruvchi uslubdir. Ulardan har biri uncha katta bo‘lmagan, vaqt davomida ham bahs ishtirokchisi, ham ma’ruzachi sifatidagi rolni ijro etadi. Mashqni tartibida 5,7 va 8 nafardan o‘quvchi bo'lgan guruhlarda ham ro‘yobga chiqarish mumkin. Katta guruhlarda vaqtni oshirish zarur. Guruhlar bitta muammoni yoki huddi shu muammoning turli jixatlarini muhokama qilishlari mumkin.

6x6x6 uslubi o‘qituvchidan faollikni va guruhlarga mohirona ta’sir o‘tkazishni talab qilidi. Mashq avvalidagi guruhlarga bo‘lish bilan bog‘lik qiyinchiliklar mashq to‘la muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga olib kelishi mumkin.

Quyida 6x6x6 usuli yordamida dars o'tish dars ishlanmasidan na’muna keltiramiz.

Metodning qisqa algoritmi:

6 o‘quvchi → 6 guruh → 6 daqiqa → 6 ta asosiy fikr → taqdimot → umumiy xulosa

Mavzu: Arifmetik progressiya

Muammoli topshiriq: “Arifmetik progressiyaning real hayotdagi qo‘llanilishiga 6 ta misol keltiring.”

Guruhlar 6 daqiqa davomida ishlaydi.

Kutiladigan javoblar:

1. Ishlab chiqarishdagi mahsulot hajmining muntazam ortishi.
2. Jamg‘arma hisob-kitoblari.
3. Zinapoya yoki konstruksiya elementlarining ketma-ket joylashuvi.

4. Masofalarning ma'lum miqdorda ortib borishi.
5. Rejali ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari.
6. Kundalik hayotdagi muntazam o‘zgaruvchi miqdorlar.

So‘ng o‘qituvchi har bir misolni matematik nuqtayi nazardan tahlil qildiradi.